

SOTSIOLOGIK TADQIQOT DASTURI HAQIDA

Eshonova Nilufar Islom qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
tarjima nazariyasi fakulteti ijtimoiy – gumanitar fanlar kafedrası sotsiologiya yo'nalishi
talabasi nilufareshonova888@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqola sotsiologik tadqiqot dasturining tuzilishi, metodologik yondashuvlari hamda tahliliy jihatlari bo'yicha umumiy tahlilni taklif etadi. Tadqiqot dasturi ichida tadqiqot maqsadi, savollar, ma'lumot yig'ish va tahlil qilish usullari bayon qilinadi; natijalarimiz esa metodologik tanlovlar sotsiologik amaliyotga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ko'rsatadi. Maqola ilmiy manbalarga tayangan holda sotsiologik tadqiqotlar dasturini konseptual jihatdan yoritadi. Ushbu maqolada sotsiologik tadqiqot dasturining nazariy asoslari, strukturaviy tarkibi hamda xalqaro (AQSH, Yevropa, Rossiya) va O'zbekiston tajribasi qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, chet eldagi "research design" yondashuvlari bilan O'zbekistondagi amaliy modellarning o'ziga xos farqlari ko'rsatildi. Natijada, O'zbekistonda sotsiologik tadqiqot dasturlarini takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqildi. Maqola sotsiologiya sohasi tadqiqotchilari, talabalari va amaliyotchi mutaxassislar uchun metodologik qo'llanma sifatida xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *metodologik yondashuv, ma'lumot yig'ish, tahlil usullari, ilmiy tadqiqot, sotsiologik tadqiqot dasturi, research design, metodologiya.*

SOCIOLOGICAL RESEARCH PROGRAM

Abstract: *This article offers a comprehensive analysis of a sociological research program's structure, methodological approaches, and analytical aspects. It describes within the research program the research aim, questions, data collection and analysis methods; the results show how methodological choices may influence sociological practice. Drawing on scientific sources, the paper conceptually illuminates a sociological research program. This article provides a comparative analysis of the theoretical foundations and structural components of the sociological research program, examining international practices (USA, Europe, Russia) and the current approaches used in Uzbekistan. The article highlights the differences between international "research design" models and the applied practices in Uzbekistan. As a result, several recommendations are proposed to improve the quality and methodological rigor of sociological research programs in the country. This paper serves as a methodological guide for researchers, students, and practitioners in the field of sociology.*

Keywords: *methodological approach, data collection, analysis methods, scientific research, sociological research program, research design, methodology.*

KIRISH

Zamonaviy sotsiologiyada har qanday ilmiy tadqiqotning muvaffaqiyati, avvalo, uning puxta rejalashtirilgan tadqiqot dasturiga bog'liq. Tadqiqot dasturi — bu sotsiologik jarayonlarni o'rganishda yo'l-yo'riq beruvchi tizimli hujjat bo'lib, u tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, gipotezasi, metodlari va natijalarning qo'llanilish yo'nalishlarini belgilaydi.

Tadqiqot dasturi sotsiologik tahlilning nazariy asoslarini amaliy o'rganish bilan uyg'unlashtiradi. U ijtimoiy jarayonlarni ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilish, sabab-oqibat bog'liqliklarini aniqlash va jamiyat rivojiga ta'sir etuvchi omillarni tushuntirish imkonini beradi.

Ilmiy tadqiqot jarayonida muayyan masala aniqlanadi, tadqiqot savollari va gipotezalar qo'yiladi, ma'lumotlar yig'iladi va tahlil qilinadi. Bu jarayon tadqiqot dasturining konseptual ramkasini tashkil etadi. Masalan, ma'lumot yig'ish metodologiyasi, tahlil usullari va natijalarning ijtimoiy ahamiyati kabi jihatlar tadqiqot dasturi doirasida o'rganiladi.

Ilmiy manbalar tadqiqot metodologiyasining muhimligini e'tirof etadi: sifatli va miqdoriy metodlar orqali ma'lumot yig'ish hamda ularni tahlil qilish sotsiologiyada keng qo'llaniladi.[4]

Shu bilan birga, tadqiqot metodlarini va ularning tanlovini “qudrat/metod” nisbati orqali ko'rib chiqish mumkin, chunki metod tanlovi tadqiqot natijalariga va ijtimoiy kontekstga ta'sir qiladi.[3,415-436] Ushbu maqolada sotsiologik tadqiqot dasturi tarkibi, metodologik yondashuvlari, ma'lumot yig'ish va tahlil qilish usullari hamda tahliliy muhokama amalga oshiriladi.

Sotsiologik tadqiqot dasturi — bu tadqiqotning ilmiy asoslangan metodologik poydevori bo'lib, unda muammo, maqsad, vazifalar, gipotezalar, metodlar va natijalarni qayta ishlash tartibi aniq belgilab beriladi[7]. Chet el sotsiologiyasida bu jarayon “research design” yoki “study protocol” deb yuritilib[8], u ilmiy izlanishning asosiy sifat mezonlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasalari va mustaqil ekspertlar tomonidan tadqiqot dasturini ishlab chiqish bo'yicha yondashuvlar modernizatsiya qilinmoqda.

Mazkur maqola sotsiologik tadqiqot dasturining mazmuni, tarkibi, xalqaro tajribadagi namunalar (AQSH, Yevropa, Rossiya) hamda O'zbekistondagi amaliy amaliyotning qiyosiy tahliliga bag'ishlanadi.

Metodlar. Tadqiqot dasturi sifatida ushbu maqola — konseptual tahlil usulida ishlab chiqilgan. Ma'lumotlar sifatida ilgari chop etilgan ilmiy manbalar, metodologik qo'llanmalar, maqolalar tahlil qilingan. Misol uchun, “Social Science Research: Principles, Methods, and Practices” asari metodologiya bosqichlarini keng yoritadi va sotsiologik tadqiqot uchun zamin yaratadi.[1]

Ushbu maqolada quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llandi:

Kontent-tahlil — xalqaro ilmiy nashrlar, metodologik qo'llanmalar (Creswell, Babbie, Neuman) va O'zbekiston Fanlar akademiyasi, Sotsiologiya instituti hamda Oliy ta'lim muassasalari materiallari o'rganildi.

Qiyosiy tahlil — AQSH, Buyuk Britaniya, Rossiya va O'zbekiston sotsiologik tadqiqot dizaynlari solishtirildi.

Tizimli yondashuv — tadqiqot dasturining asosiy komponentlari o'zaro bog'liq bo'lgan kompleks tizim sifatida tahlil qilindi.

Muhokama. Yuqorida keltirilgan natijalar asosida bir qancha muhim jihatlar muhokama qilinadi. Birinchidan, sotsiologik tadqiqot dasturida metodologik yondashuv va ma'lumot yig'ish usullarini tanlash tadqiqot natijalarini keskin ta'sir qilishi mumkin.

Masalan, standart so'rovnomalar yoki intervyu metodlari tadqiqot ob'ektini shakllantirishda qudrat (power) jihatiga duch kelishi mumkin.[3,415-436] Ikkinchidan, murakkab ijtimoiy realitetni o'rganishda faqat miqdoriy yoki faqat sifatiiy metodlardan foydalanish cheklovlar tug'dirishi mumkin. Shuning uchun metodlarning kombinatsiyasi zarur.[2]

Uchinchidan, tadqiqot dasturini tuzishda maqsad va savollarni aniq belgilash (kirishda ko'rsatilgan) juda muhimdir — bu bosqich tanlovlarni — metod, ma'lumotlar, tahlil usullari — mazmunli qiladi.

Shuningdek, sotsiologik tadqiqot dasturini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tadqiqot etikasi, ma'lumotlar manbasi ishonchliligi va "power/method" munosabati bo'yicha tahlil ham jalb qilinishi lozim. Kelgusida sotsiologik tadqiqot dasturini ishlab chiqishda quyidagi tavsiyalar aholigacha yetkazilishi lozim:

Metod tanlovida tadqiqot savollari bilan to'liq moslik hisobga olinsin;

Ma'lumotlar yig'ish va tahlil jarayonida ijtimoiy kontekst (madaniyat, tuzilmalar, hokimiyat munosabatlari) e'tiborga olingan bo'lsin;

Tadqiqotning amaliy ahamiyati va natijasi ijtimoiy o'zgarishlarga hissa qo'shishi mumkinligi nazarda tutilsin.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sotsiologik tadqiqot dasturi tarkibiiy jihatdan Rossiya modeliga yaqin bo'lib, amaliyotga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. AQSH modeli esa tadqiqotning ilmiy asoslanishi, gipoteza aniq formulirovkasi va etik talablarning qat'iy nazorat qilinishi bilan ajraladi.

O'zbekistonda tadqiqot dasturlarini takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlar muhim:

Nazariy yondashuvni kuchaytirish (Creswell, Babbie asosida).

Tadqiqotning konseptual sifatini oshirish uchun men nazariy yondashuvlarni kuchaytirish zarur, deb hisoblayman. Bu — mavjud ilmiy adabiyotlar, yirik sotsiologik nazariyalar, xorijiiy va mahalliiy konseptual maktablarning g'oyalari bilan tadqiqotni chuqur bog'lashni anglatadi. Nazariy asoslar qanchalik mustahkam bo'lsa, gipotezalar shunchalik puxta shakllanadi, o'lchov indikatorlari aniq tanlanadi va natijalarni sharhlash ham ilmiy asosga ega bo'ladi. Shuning uchun, tadqiqot dasturida

funksionalizm, konflikt nazariyasi, interaksionizm, zamonaviy raqamli sotsiologiya kabi konsepsiyalardan foydalanish muhimdir. Bu yondashuvlar empirik natijalarning mazmunli talqin qilinishi va ilmiy bilimga qo'shiladigan hissaning oshishini ta'minlaydi.

Statistik ishonchlilik va haqiqiylik standartlarini keng joriy etish.

Sotsiologik tadqiqotlarning yuqori sifatli bo'lishi uchun men statistik ishonchlilik va haqiqiylik standartlarining qat'iy qo'llanishini zarur deb hisoblayman. Ishonchlilik (reliability) — bu qo'llangan o'lchovlarning vaqt o'tishi bilan barqaror natija berishi, ya'ni o'lchash vositasining izchil ishlashi demakdir. Haqiqiylik (validity) esa metodikalar aynan o'lchashi kerak bo'lgan hodisani to'g'ri o'lchash darajasini anglatadi.

Tadqiqotlarda ushbu standartlarni keng joriy etish respondent javoblarining aniqligini oshiradi, natijalarni statistik jihatdan asosli qiladi va ilmiy xulosalarning ishonchliligini ta'minlaydi. Zamonaviy sotsiologiya amaliyotida aynan shu ikki mezon tadqiqot dasturining sifat ko'rsatkichlarini belgilovchi asosiy tamoyil hisoblanadi.

Aralash metodlarni ko'paytirish.

Mening fikrimcha, zamonaviy sotsiologik tadqiqotlarda aralash metodlardan (mixed methods) foydalanishni ko'paytirish tadqiqot sifatini sezilarli darajada oshiradi. Aralash metod — bu miqdoriy va sifat yondashuvlarini bir tadqiqot ichida uyg'unlashtirishni anglatadi. Miqdoriy ma'lumotlar hodisaning miqyosini, takrorlanish darajasini va statistik tendensiyalarini aniqlab bersa, sifat metodlari mazkur jarayonlarning mazmuni, sabab-mohiyati va subyektiv talqinlarini chuqur ochib beradi. Bu yondashuv tadqiqotning empirik bazasini boyitadi va sotsiologik tahlilning nazariy asoslari bilan yanada chuqurroq integratsiyasini ta'minlaydi.

Pilot tadqiqotlarni majburiy qilish.

Tadqiqot jarayonida pilot tadqiqotlarni majburiy qilish degani — har qanday asosiy ilmiy izlanish boshlanishidan avval kichik ko'lamdagi sinov tadqiqotini o'tkazishni majburiy talab sifatida belgilashdir. Men bu yondashuvni shuning uchun qo'llab-quvvatlayman, chunki pilot tadqiqot:

Asosiy metodikaning to'g'riligini oldindan tekshiradi — savollar tushunarli yoki yo'qligi, o'lchovlar aniqligi va jarayonning ishlash mexanizmlari sinovdan o'tadi.

Xatolarni ertaroq aniqlash imkonini beradi — natijada asosiy tadqiqot bosqichida vaqt, resurs va respondentlar mehnati behuda sarflanmaydi.

Tadqiqot dizaynini takomillashtiradi — zarur bo'lsa, o'lchovlar qayta ko'rib chiqiladi, yangi indikatorlar qo'shiladi yoki nomaqbul bandlar chiqarib tashlanadi.

Natijalar ishonchliligini oshiradi — chunki asosiy tadqiqot faqat sinovdan o'tgan metodika asosida amalga oshiriladi.

Empirik jarayonni standartlashtiradi — bu esa tadqiqotning ilmiy ahamiyatini va qayta takrorlanish imkonini kuchaytiradi.

Shu sababli, men ilmiy hamjamiyatda pilot tadqiqotlarni ixtiyoriy emas, balki majburiy bosqich sifatida joriy etish tarafdoriman. Bu nafaqat ilmiy sifatni yaxshilaydi,

balki tadqiqot natijalarining ob'ektivligi va statistik ishonchliligini sezilarli darajada oshiradi.

Bu amaliyotlar O'zbekistondagi sotsiologik tadqiqotlar sifatini yangi bosqichga ko'taradi.

Natijalar. Tahlil natijalariga ko'ra, sotsiologik tadqiqot dasturida quyidagi asosiy xususiyatlar aniqlanadi:

Tadqiqot dasturi maqsad, savollar va gipoteza shaklida aniq tuziladi.

Metodologik yondashuvda miqdoriy va sifatli metodlarning kombinatsiyasi samarali bo'ladi — "Complexity-framed" yondashuv bu borada misol keltirilgan.[2]

Ma'lumot yig'ishda va tahlil qilishda tanlov erkinligi bilan birga tadqiqotning ijtimoiy konteksti, metod tanlovining qudrat/tashkiliy ta'siri (power/method nexus) ham muhim rol o'ynaydi.[3,415-436]

Tadqiqot dasturi muvaffaqiyatli bo'lishi uchun metodologik aniqlik, etika talablari va ma'lumotlar manbasi sifatiga rioya qilinishi lozim.[5]

Tadqiqot dasturini konseptual shakllantirish va metodologik rejalashtirish sotsiologik tadqiqotning ilmiy va amaliy natijalariga zamin yaratadi.

1. Sotsiologik tadqiqot dasturining nazariy komponentlari

Adabiyotlarda (Babbie, 2017; Creswell, 2014; Neuman, 2016) tadqiqot dasturi quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat deb ko'rsatiladi:

1. Muammo va uning dolzarbligi
2. Tadqiqot maqsadi
3. Tadqiqot vazifalari
4. Predmet va obyekt
5. Asosiy gipotezalar
6. Metodologik yondashuv (kvantitativ, sifat, aralash)
7. Tanlama dizayni
8. Tadqiqot usullari (so'rov, intervyu, fokus-guruhi, eksperiment va h.k.)
9. Ma'lumotlarni qayta ishlash mezonlari
10. Etik talablarga rioya qilish

Bu strukturani ko'pchilik xalqaro universitetlar "Research Proposal" shaklida o'qitadi.

2. Chet elda sotsiologik tadqiqot dasturi amaliyoti

AQSH modeli (Harvard, Stanford, MIT). Tadqiqot dasturi "Research Design Blueprint" deb yuritiladi[9].

Kuchli jihatlar: Muammoga nazariy asos keltirish majburiy;

1. Empirik dalillarning ishonchlilik mezonlari (reliability & validity) aniq belgilangan;

2. Tanlama hajmini hisoblash uchun aniq statistik formulalar beriladi;

3. Etik komissiya (IRB) tasdig'i talab qilinadi;

4. Yevropa modeli (Oxford, Cambridge, Humboldt universiteti);

5. Tadqiqot dasturi ko'proq madaniy-sotsial kontekstni yoritishga urg'u beradi;

6. Ko'p hollarda aralash metodlar (mixed methods)dan foydalaniladi;

7. Tadqiqot bosqichlari: tayyorgarlik → pilot tadqiqot → asosiy tadqiqot → natijalarni diffuziyasi;

Rossiya sotsiologik maktabi (VySSH, MGU). "Programma sotsiologicheskogo issledovaniya" nomi bilan mashhur[12].

Tarkibi aniq standartlashtirilgan:

1. metodologik bo'lim
2. metodik bo'lim
3. tashkiliy bo'lim

Kuchli tomoni — strukturaviy aniqligi. Kuchli statistik tahlil maktabi mavjud.

3. O'zbekistonda sotsiologik tadqiqot dasturi amaliyoti

O'zbekistonda tadqiqot dasturi odatda quyidagi tashkilotlarda qo'llanadi:

1. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi — Sotsiologiya instituti
2. Oliy ta'lim muassasalari (O'zMU, TSUUL, SamDU, QarDU va boshqalar) Ijtimoiy

fikr markazi

3. Yoshlar tadqiqot instituti
4. Davlat statistika qo'mitasi

O'zbekistonda qabul qilingan klassik tadqiqot dasturi strukturasi:

1. Muammo va dolzarblik
2. Maqsad, vazifalar
3. Tadqiqot predmeti va obyekt
4. Gipotezalar
5. Metodlar majmuasi
6. Tanlanma tavsifi
7. Savolnoma yoki intervyu ssenariysi
8. Statistik qayta ishlash tartibi
9. Etik talablar
10. Tashkiliy reja (muddati, resurslar, mas'ullar)

Chet elga qaraganda biroz amaliyroq, biroq ba'zan nazariy asos yetishmaydi.

Xulosa: Sotsiologik tadqiqot dasturi — ijtimoiy hodisalarni sistematik o'rganish uchun zarur ilmiy vositadir. Ushbu maqolada metodologik jihatlar, ma'lumot yig'ish va tahlil usullari hamda ular bilan bog'liq muammolar tahlil qilindi.

Tadqiqot dasturini samarali amalga oshirish uchun metodologik tanlov, ma'lumotlar manbasi hamda ijtimoiy kontekstni hisobga olish muhim ekanligi aniqlandi.

Sotsiologik tadqiqot dasturi — ilmiy izlanishning poydevori bo'lib, uning to'g'ri tuzilishi tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy ahamiyatini belgilaydi. Xalqaro tajriba o'zbek sotsiologiyasiga ko'plab metodologik yangiliklar kiritishi mumkin. Tadqiqot dasturining takomillashtirilgan modeli O'zbekistonda o'tkazilayotgan sotsiologik izlanishlarning sifatini oshiradi, ilmiy hamjamiyat uchun doimiy foydalaniladigan manba bo'lib xizmat qiladi.

Kelgusida sotsiologik tadqiqot dasturlarida metod tanlovining “qudrat” bilan munosabati, ijtimoiy o’zgarishlarga ta’siri va natijalarining amaliy ahamiyati bo’yicha chuqurroq tadqiqotlar olib borilishi tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Bhattacharjee, A. (2012). Social Science Research: Principles, Methods, and Practices. University of South Florida.
2. Barbrook-Johnson, P. (2022). “Combining complexity-framed research methods for social research”. Evaluation and Program Planning.
3. Schmitz, A., & Hamann, J. (2022). “The Nexus between Methods and Power in Sociological Research”. The American Sociologist, 53, 415-436.
4. Imm, J. (2023, January 13). “Important Research Methods in Sociology”. North Central College.
5. L. Au. (2023). “Methods and Techniques of Sociological Research”. CUNY AcademicWorks.
6. Smagacz-Poziemska, M. (2021). “Social practice research in practice. Some methodological challenges”. International Journal of Research & Method in Education.
7. Babbie, E. (2017). The Practice of Social Research. Cengage Learning.
8. Creswell, J. W. (2014). Research Design: Qualitative, Quantitative, and Mixed Methods Approaches. SAGE.
9. Neuman, W. L. (2016). Social Research Methods: Qualitative and Quantitative Approaches. Pearson.
10. Bryman, A. (2012). Social Research Methods. Oxford University Press.
11. O’zbekiston FA Sotsiologiya instituti (metodik qo’llanmalar va mahalliy standartlar).
12. Rossiya sotsiologik maktabi (A. G. Zdravomyslov, V. A. Yadov metodik adabiyotlari).